



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI HUZURIDAGI
STATISTIKA AGENTLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA
XIZMATLAR SOHASINING
ASOSIY KO'RSATKICHLARI



2024- yil
yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasi zamonaviy iqtisodiyotda muhim o'rin tutib, aholi bandligini oshirish, turmush sifatini yaxshilash va resurslardan samarali foydalanishga hissa qo'shadi. Globalashuv va texnologiyaning jadal rivojlanishi bilan xizmatlar innovatsiyalar, samaradorlikni oshirish va iqtisodiy barqarorlik uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda. Xizmatlar sohasi ijtimoiy infratuzilmani mustahkamlashga, davlat, biznes va aholi o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi, shuningdek, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari o'sishini rag'batlantiradi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

(2024- yil yanvar-noyabr)

72,1



Xizmatlar sohasidagi korxonalar va tashkilotlar ulushi, % da

19 602,5




Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi, ming so'mda

56,5



Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning ulushi, % da




Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 11-maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot


Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1- dekabr holatiga ko'ra)



Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-noyabr)



Soni, birlikda



Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar

(1- dekabr holatiga ko'ra)

67,9



2024- y.


Jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soniga nisbatan ulushi, % da

2020- y.



60,0

Soni, birlikda



Soni, birlikda

Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari

(yanvar-noyabr)

2024

48 180

2023

54 226

2022

52 968

2021

56 890

2020

48 818

2024- y.

66,1



Jami yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soniga nisbatan ulushi, % da


57,1



2020- y.


Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi

(2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ Grafikda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- y.y. yanvar-noyabr oylari uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan, 2023- yil yanvar-noyabr oylari hajmi va 2024- yil yanvar-noyabr oylari uchun ma'lumotlar yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda shakllantirilgan.



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)


Hududlar nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	726 813,1	100,0	113,3
Qoraqalpog'iston Respublikasi	25 595,5	3,5	111,0
viloyatlar:			
Andijon	37 062,4	5,1	113,2
Buxoro	30 583,2	4,2	111,5
Jizzax	17 820,2	2,5	114,0
Qashqadaryo	38 246,4	5,3	110,9
Navoiy	17 819,7	2,5	111,9
Namangan	38 011,4	5,2	112,1
Samarqand	51 894,4	7,1	113,6
Surxondaryo	25 329,9	3,5	110,6
Sirdaryo	10 311,2	1,4	112,3
Toshkent	50 110,7	6,9	113,5
Farg'ona	48 998,6	6,7	112,0
Xorazm	25 031,0	3,4	112,4
Toshkent sh.	265 653,9	36,6	117,3

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-noyabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **56,5** foizni, shu jumladan, **36,5** foizini kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasidagi kichik tadbirkorlik (2024- yil yanvar-noyabr)





Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha Mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichi (MST) ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari


(2024- yil yanvar-noyabr)

Xizmat turlarining nomi	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Xizmatlar – jami	726 813,1	100,0	113,3
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	50 420,0	6,9	126,0
Moliyaviy xizmatlar	122 891,1	16,9	120,8
Transport xizmatlari	127 327,1	17,5	109,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	62 888,1	8,7	112,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	160 063,5	22,0	111,1
Savdo xizmatlari	132 742,7	18,3	111,7
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	18 721,2	2,6	112,4
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	26 854,0	3,7	113,1
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	14 293,9	2,0	109,2
Ijara xizmatlari	8 683,4	1,2	105,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	10 659,1	1,5	111,8
Shaxsiy xizmatlar	14 017,1	1,9	108,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	9 490,0	1,3	106,5
Boshqa xizmatlar	30 650,0	4,2	109,4



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)¹⁾



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida xizmatlarning umumiy hajmida (yashirin iqtisodiyotni hisobga olgan holda) yashash va ovqatlanish xizmatlarining ulushi **22,0** foizni tashkil etdi. Ularning tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **95,6** %.

Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

Savdo xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdoning ulushi (yashirin iqtisodiyotni qo'shgan holda) umumiy savdo xizmatlarining yarmidan ziyod qismini, ya'ni **55,0 %** ni tashkil etdi.




Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	46 461,6	+6,9
Toshkent	12 964,9	+16,0
Farg'ona	9 993,0	+12,9
Samarqand	9 429,3	+16,8
Andijon	7 914,9	+12,5
Namangan	7 306,4	+14,0
Qashqadaryo	7 290,9	+11,8
Buxoro	6 767,9	+11,2
Surxondaryo	6 623,9	+14,7
Jizzax	4 579,0	+26,5
Qoraqalpog'iston Resp.	4 049,5	+17,6
Navoiy	3 814,5	+10,2
Xorazm	3 730,3	+13,4
Sirdaryo	1 791,3	+11,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾



Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **49,4** foiz.

Toshkent shahrida transport xizmatlari hajmi **24 507,8** mlrd so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan mazkur hududda transport xizmatlarining o'sishi **20,3** foiz darajasida qayd etildi.


Hududlar kesimida transport xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Toshkent shahri	24 507,8	+20,3
Toshkent	8 878,1	+12,6
Samarqand	8 586,8	+18,2
Farg'ona	6 264,5	+10,7
Andijon	5 387,0	+15,6
Buxoro	4 907,6	+10,0
Qashqadaryo	4 901,0	+11,1
Namangan	4 323,0	+18,3
Qoraqalpog'iston Resp.	3 758,1	+1,4
Xorazm	3 620,2	+11,2
Surxondaryo	2 876,0	+10,7
Navoiy	2 283,4	+17,7
Jizzax	1 818,5	+13,4
Sirdaryo	966,7	+19,7

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **62 888,1** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **8,7 %** ni tashkil etdi.



Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Toshkent shahri	10 369,1	+8,9
Toshkent	8 234,9	+14,6
Samarqand	7 579,3	+15,3
Farg'ona	5 785,0	+9,7
Andijon	5 149,0	+16,7
Qashqadaryo	4 638,5	+12,9
Buxoro	4 483,0	+10,7
Namangan	3 757,9	+17,5
Xorazm	3 379,4	+8,0
Surxondaryo	2 556,7	+11,6
Qoraqalpog'iston Resp.	2 226,8	+22,1
Navoiy	2 071,0	+17,6
Jizzax	1 749,4	+10,6
Sirdaryo	904,8	+19,8

Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida yo'lovchi avtomobil transporti xizmatlari ulushi **56,5** foizga yetdi.

Avtomobil transporti xizmatlarining umumiy hajmida katta qismi taksi xizmatlariga to'g'ri keladi – **45,7 %**.

■ Hajmi, mlrd so'mda ■ O'sishi, % da

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	72 252,5
Farg'ona	6 343,5
Andijon	5 106,6
Samarqand	5 025,9
Toshkent	4 954,5
Buxoro	4 094,8
Qashqadaryo	3 897,6
Xorazm	3 690,9
Surxondaryo	3 366,3
Qoraqalpog'iston Resp.	3 233,8
Navoiy	3 114,4
Namangan	2 938,9
Jizzax	2 714,5
Sirdaryo	2 156,9

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-noyabr, % da)



Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-noyabrda 87,6** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **58,8** foizni yoki **72 252,5** mlrd so'mni tashkil etdi. **2023- yil yanvar-noyabr** oylariga nisbatan ushbu hududda yuqori o'sish sur'ati **127,1** foiz darajasida qayd etildi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni kompyuter dasturlashtirish xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **40,5 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Toshkent shahri	36 659,1	+29,9
Farg'ona	1 865,6	+12,9
Samarqand	1 679,7	+18,6
Toshkent	1 489,3	+20,5
Andijon	1 264,8	+15,1
Qashqadaryo	1 181,6	+15,5
Namangan	1 133,8	+18,7
Surxondaryo	992,3	+16,1
Buxoro	900,3	+16,1
Qoraqalpog'iston Resp.	872,7	+18,0
Xorazm	847,0	+23,0
Navoiy	554,3	+18,7
Jizzax	514,6	+16,2
Sirdaryo	413,1	+16,1

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da

Kompyuter dasturlashtirish xizmatlarining dinamikasi

(yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida, kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar hajmi **20 405,2** mlrd so'mga yetdi.

Hududlar bo'yicha kompyuter dasturlashtirish xizmatlari


(2024-yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	18 898,2
Farg'ona	315,6
Samarqand	189,5
Surxondaryo	157,9
Toshkent	145,4
Namangan	135,2
Qashqadaryo	122,9
Andijon	99,9
Buxoro	85,5
Xorazm	67,1
Navoiy	64,2
Qoraqalpog'iston Resp.	59,7
Jizzax	32,3
Sirdaryo	31,8

2024 yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar bo'yicha eng katta xizmatlar hajmi qayd etildi. Mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **18 898,2** mlrd so'mni yoki kompyuter dasturlashtirish xizmatlari umumiy hajmining **92,6** foizini tashkil etdi.

Telekommunikatsiya xizmatlarining dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)

2024- yil yanvar-noyabr oyi yakunlariga ko'ra telekommunikatsiya xizmatlari hajmi 18 652,7 mlrd so'mga yetdi va 2023- yilning shu davriga nisbatan o'sish 13,4 % ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida telekommunikatsiya xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Toshkent shahri	7 951,8	+12,2
Farg'ona	1 337,8	+10,1
Samarqand	1 310,2	+15,8
Andijon	1 061,5	+11,7
Toshkent	1 002,5	+19,2
Qashqadaryo	949,0	+13,2
Namangan	908,2	+16,2
Surxondaryo	743,6	+11,4
Buxoro	742,3	+14,3
Qoraqalpog'iston Resp.	686,2	+16,1
Xorazm	684,3	+17,2
Navoiy	452,3	+16,1
Jizzax	442,0	+13,3
Sirdaryo	352,5	+13,6

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

⚙️ O'sishi, % da



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

OAV, kontent va AKT xizmatlari sektorlarining muqobil to'plami (2024- yil yanvar-noyabr)

Muqobil to'plam ko'rsatkichlarining nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Umumiy hajmdagi ulushi, % da
Jami	52 079,7	100,0
shu jumladan:		
AKT xizmatlari sektori	46 768,6	89,8
shu jumladan:		
Dasturiy ta'minotni nashr qilish bo'yicha xizmatlar	2 862,4	6,1
Telekommunikatsiya xizmatlari	18 652,7	39,9
Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish xizmatlari va boshqa yordamchi xizmatlar	20 405,2	43,6
Ma'lumotlarga ishlov berish, joylashtirish bo'yicha xizmatlar va o'zaro bog'liq xizmatlar; web-portallar	3 188,6	6,8
Kompyuterlar va aloqa uskunalarini ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 659,7	3,6
Kontent va ommaviy axborot vositalari sektori	5 311,1	10,2
shu jumladan:		
Kitoblar, davriy nashrlar nashr qilish bo'yicha xizmatlar va boshqa nashirlik xizmatlari	797,8	15,0
Kino-videofilmlar va televideniya dasturlari ishlab chiqish bo'yicha xizmatlar, ovoz yozish va musiqa asarlarini nashr qilish xizmatlari	397,4	7,5
Dasturlar tuzish va teleradioeshittirishlar bo'yicha xizmatlar	1 226,5	23,1
Boshqa axborot xizmatlari	2 889,4	54,4

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)



Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **49,3** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	13 026,2
Samarqand	2 090,8
Farg'ona	1 551,8
Buxoro	1 474,1
Toshkent	1 386,5
Andijon	1 308,6
Namangan	1 307,9
Qashqadaryo	995,6
Surxondaryo	870,4
Qoraqalpog'iston Resp.	844,0
Xorazm	721,9
Navoiy	545,1
Jizzax	458,7
Sirdaryo	272,4




Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Toshkent shahriga to'g'ri keladi. **2024-yilning yanvar-noyabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmatlar hajmi **13 026,2** mlrd so'mni yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **48,5** foizini tashkil etdi.



Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **53,1** foizni tashkil etdi. Boshqa sog'liqni saqlash xizmatlari **30,3** foizni, shifokorlar amaliyoti va stomatologiya sohasidagi xizmatlar **16,6** foizni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr)

Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sish sur'ati, % da
Toshkent shahri	6 774,8	109,1
Toshkent	1 464,1	109,0
Samarqand	1 014,8	114,3
Farg'ona	909,1	100,0
Namangan	676,6	110,9
Andijon	620,4	114,8
Buxoro	504,1	111,2
Qashqadaryo	478,1	108,6
Xorazm	438,0	111,2
Surxondaryo	353,4	107,6
Jizzax	330,3	105,9
Navoiy	245,8	104,3
Sirdaryo	244,5	107,6
Qoraqalpog'iston Resp.	239,9	115,3

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi


(yanvar-noyabr) ¹⁾



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **68,0** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ *включая нераспределенные объемы по регионам*

Hajmi, mlrd so'mda

O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **8 683,4** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **53,9** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi


(yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024-yil yanvar-noyabr oylarida huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **1 898,2** mlrd so'mga yetdi.

Huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar

(2024-yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



Ushbu xizmatlar hajmining salmoqli qismi Toshkent shahri hissasiga to'g'ri keldi, uning huquq va buxgalterlik hisobi sohasida ko'rsatilgan xizmatlar jami hajmidagi ulushi **83,8** foiz yoki **1 590,9** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023-yilning shu davriga nisbatan mazkur hudud bo'yicha huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **320,7** mlrd so'mga yoki **15,4** foizga oshdi.

Aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr, ming so'mda)

Yuridik va buxgalteriya xizmatlari zamonaviy biznes va jismoniy shaxslar hayotida asosiy rol o'ynaydi, huquqiy himoya va moliyaviy shaffoflikni ta'minlaydi.




Hududlar kesimida aholi jon boshiga huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, ming so'mda)




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan huquq va buxgalteriya hisobi sohasidagi xizmatlar hajmi **518,5** ming so'm darajasiga yetdi. Shuningdek, Navoiy (**21,1** ming so'm) va Toshkent (**15,5** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa ushbu ko'rsatkich o'rtacha **2,6** ming so'm-ni tashkil etdi.

Yuridik xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



2024- yil yanvar-noyabr oylarida yuridik xizmatlarning huquq va buxgalterlik hisobi sohasidagi jami xizmatlar hajmidagi ulushi **31,4 %** yoki **595,8** mlrd so'mni tashkil etdi.

Hududlar kesimida yuridik xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)



Hududlar orasida ushbu xizmat turiga Toshkent shahrida talab yuqori. Ushbu hududda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi **445,1** mlrd so'mni yoki yuridik xizmatlar jami hajmining **74,7** foizini tashkil etdi.

Buning sababi shundaki, shaharlarda aholi zichligi, ko'proq tijorat va fuqarolik operatsiyalari va huquqiy nizolar sonining ko'payishi tufayli yuridik xizmatlarga talab sezilarli darajada oshadi.

Aholi jon boshiga yuridik xizmatlar dinamikasi


(yanvar-noyabr, ming so'mda)

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **16,1** ming so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar


(2024- yil yanvar-noyabr, ming so'mda)



2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Toshkent shahrida aholi jon boshiga yuridik xizmatlar hajmi **145,1** ming so'mga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm (**9,9** ming so'm) va Toshkent (**6,8** ming so'm) viloyatlarida nisbatan yuqori ko'rsatkich qayd etildi. Surxondaryo viloyatida esa yuridik xizmatlar hajmi o'rtacha **1,8** ming so'mni tashkil etdi.


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi

(yanvar-noyabr) ¹⁾



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 47,4 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)

Toshkent shahri	5 632,3
Toshkent	692,1
Navoiy	662,3
Samarqand	484,7
Qashqadaryo	290,1
Surxondaryo	237,8
Farg'ona	231,5
Andijon	218,1
Xorazm	211,6
Qoraqalpog'iston Resp.	211,5
Namangan	207,8
Buxoro	187,6
Jizzax	163,1
Sirdaryo	59,5



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **9 490,0** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Toshkent shahrining ulushi **59,4** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxlari orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

"Ta'lim" seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi. **Ta'lim sohasidagi faoliyatni** amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (shartnoma) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalarini operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Huquq va buxgalteriya sohasidagi xizmatlar hajmi – bu huquq sohasidagi bozor xizmatlaridan, mijozlarga ularning qonuniy huquq va majburiyatlari hamda boshqa huquqiy xizmatlar bo'yicha maslahat berishdan, shuningdek, buxgalteriya hisobini yuritishdan, buxgalterlik hisobi va audit, soliq deklaratsiyalarini tayyorlashdan olingan daromadlar miqdori demakdir.

Yuridik xizmatlar hajmi fuqarolik, jinoiy ishlarda, mehnat tortishuvlarida maslahat xizmati ko'rsatish va vakillik qilishni, shuningdek, yuridik hujjatlarni tayyorlash, sud ijrochilari, hakamlik sudyalari, inspektorlar va sudyalarning xizmatlari, sudlarda va boshqa sud organlarida advokatlar kollegiyasining a'zolari bo'lgan yoki ularning nazorati ostidagi shaxslar tomonidan yuridik vakillik va manfaatlarini himoya qilish bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari narxini o'z ichiga oladi.